

## PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA MAXSUS FANLARNI O'QITISHDA INNOVATSION USULLARDAN, PLATFORMALARDAN FOYDALANISH

**Mambetova sayyora madraimovna**

Ellikqal'a tumani xalq ta'limi bo'limida yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash markazi  
psixologi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6838698>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi professional ta'lim tizimi holati, masofaviy ta'limni tashkil etishda mavjud muammo va kamchiliklar, ularni bartaraf etish hamda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash masalalari aks ettirilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim xalqaro standartlar, klassifikator, masofaviy ta'lim, elektron platformalar, ilmiy salohiyat.

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ И ПЛАТФОРМ В ПРЕПОДАВАНИИ СПЕЦИАЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ В СИСТЕМЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

**Аннотация.** В данной статье описывается состояние системы профессионального образования Республики Узбекистан, существующие проблемы и недостатки в организации дистанционного обучения, их устранение, вопросы подготовки конкурентоспособных кадров.

**Ключевые слова:** образовательные международные стандарты, классификатор, дистанционное образование, электронные платформы, научный потенциал.

## THE USE OF INNOVATIVE METHODS AND PLATFORMS IN THE TEACHING OF SPECIAL SUBJECTS IN THE SYSTEM OF VOCATIONAL EDUCATION

**Abstract.** This article describes the state of the vocational education system of the Republic of Uzbekistan, the existing problems and shortcomings in the organization of distance learning, their elimination, and the issues of training competitive personnel.

**Key words:** educational international standards, classifier, distance education, electronic platforms, scientific potential.

## KIRISH

Respublika iqtisodiyotining barqaror va jadal taraqqiyotini ta'minlashda kelajak uchun keng qamrovli, oqilona asoslangan ustivor vazifalar va yo'nalishlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning reja va dasturlari ishlab chiqilmoqda. Mamlakatimizda shakllantirilayotgan, ko'pgina jabhalarda chuqurlashib borayotgan yangicha bozor munosabatlari uzluksiz ta'lim tizimiga, shu jumladan iqtidorli, tashabbuskor yuqori malakali kadrlar soni va salohiyatini oshirishga xizmat qilayotgan Professional ta'lim muassasalari faoliyatiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash davrida fuqarolar daromatlarini, turmush darajasi va respublikada ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish, natijada yurtimiz mustaqilligini mustahkamlash, xalqimiz farovonligini yuksaltirish maqsadida aholi bandligini ta'minlash uchun yangi ish o'rinlari yaratish, mehnat sharoitlarini yaxshilash bilan birgalikda mehnat resurslari intellektual salohiyatini oshirish vazifalari ham bugunning dolzarb ahamiyat kasb etuvchi masalalari qatoridan o'rin egallaydi.

## TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Respublikada kollej va texnikumlariga abituriyentlarning hujjatlarini qabul qilish hamda ro'yxatdan o'tkazishda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining idoraviy kollejlari uchun kollej.edu.uz hamda texnikumlar uchun texnikum.uz onlayn elektron platformasi ishga tushirildi. 2021 yilda esa professional ta'lim muassasalari bilim oluvchilari ham hamda O'zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan hamkorlikda professional ta'lim muassasalarida tashkil etilgan ishsiz ro'yxatga olish tizimini yo'lga qo'yish maqsadida plov-ta'lim-edu.uz elektron platformalar yo'lga qo'yildi.

Yuqorida ko'rsatilgan ayrim muammo va kamchiliklarni bartaraf etishda har bir ta'lim muassasasida, har bir ta'lim yo'nalishlari bo'yicha mavjud o'quv jarayoni elektron platformada aks etishi lozim. Bunda platforma foydalanuvchilarini uchu guruhga bo'lish mumkin: Bilim oluvchi o'quvchi, talaba, tinglovchilar-bilim oluvchilar toifasiga kiruvchi foydalanuvchilar berilgan. Logon va maxfiy kodlar orqali tizimga kirib, dars jadvali asosida berilgan mavzu bo'yicha ma'ruza matni. Laboratoriya ishi, amaliy mashg'ulot topshirig'i, visual materiallardan, foydalanishlari mumkin bo'ladi, hamda bajarilgan nazorat ishlar, mustaqil ta'lim hamda boshqa vazifalarni elektron shaklda o'qituvchiga yuboradi. Pedagog xodim (o'qituvchi), ishlab chiqarish ta'limi ustasi, yo'riqchi va boshqalar, pedagog xodimlar uchun alohida login va maxfiy kod beriladi, hamda pedagog xodim toifasiga kiruvchi foydalanuvchilar tizimda o'quv mashg'ulotini tashkillashtiradi hamda olib boradi. O'quv mashg'ulotini tashkillashtirishda dars mavzusi bo'yicha barcha materiallarni tizimga joylaydi, bilim oluvchilarning mashg'ulotga qatnashishlarini nazorat qiladi, bajarilgan topshiriqlarni tekshiradi hamda baholaydi, o'quv mashg'ulot vaqtida jonli videokonferensiyalarni tashkillashtiradi.

### **TADQIQOT NATIJALARI**

Hozirgi globallashtirish va tezkor axborot almashinuvi sharoitlarida har qanday tashkilot, korxonalar va muassasaning zamon talablariga mos ravishda rivojlanishi xodimlarning keng dunyoqarashi va mas'uliyatlilik, eng muhimi, rahbar va jamoadagi yuqori malakali kadrlarning bilimi, ko'nikmasi iqtidori, ma'naviyati, boshqaruv qobiliyat, ilmiy salohiyati va boshqa xususiyatlariga bevosita bog'liqdir. Professional ta'lim muassasalarida raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ulardan yurtimiz osoyishtaligi va obodligi, xalqimiz farovonligi yo'lida maqsadli foydalanish qat'iy raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyotining asosiy talablaridan biridir. Chunki yuqorida keltirilgan global masalalarning ijobiy hal etilishida mamlakatimizning ulkan ilmiy, ijodiy, intellektual va mehnat salohiyatining tarkibiy qismi bo'lgan. Mustaqillik yillaridan hozirga qadar professional ta'lim muassasalarini bitirib, mehnat bozorida bozor iqtisodiyoti talablariga amal qilib, tashkilotlarda samarali mehnat ko'rsatib kelayotgan yuqori malakali kadrlarning o'rni ahamiyatlidir. Keyingi yillarda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustivor yo'nalishlari hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan professional ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

### **MUHOKAMA**

Bugungi kunda Respublikamizda axborot texnologiyalari yo'nalishida kadrlar tayyorlash tizimida bir qancha ishlar amalga oshirilayotgan bo'lib, bunga misol tarzida Muxammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining bir necha hududlarida filiallari, "Bir million dasturchi" kabi yirik loyihalar tashkil etilganligini ko'rsatishimiz mumkin.

Shu barobarda, professional yaratish hamda ulardan foydalanish, doimiy ravishda takomillashtirilib borish maqsadida har bir muassasa ma'muriy xodimlarini innovasion elektron platformalar yaratish bo'yicha Davlat byudjetihisobidan maxsus o'qitish doimiy ravishta malakasini oshirish tizimini joriy qilinishi pedogog xodimlarning axborot texnologiyalari sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishga zamin yaratadi. Malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishda, agar mas'uliyatning bir qismini biznes hamjamiyati vakillari zimmasiga olgan bo'lsa, erishish mumkin. Shu bilan birga, davlat, ish beruvchilar va o'quv yurtlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning qo'shma zo'nasini yaratish kerak.

### **XULOSA**

Ta'lim muassasalarida o'rnatilgan intizom ta'lim muassasalari jamoasini jiplashtirish, ta'lim muassasasi ichki hayoti va faoliyatining mo'tadil kechishini ta'minlaydi. Intizom o'quvchilardan hamjihatlik asosida faoliyat olib borish, o'quv yurti manfaati uchun birgalikda kurashish, rahbariyat hamda vakolatli o'quvchilar organlari, uning a'zolari talabalarni to'g'ri talqin etish va ularning bajarilishini talab etadi. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki yoshlarimizni to'g'ri kasbga yo'naltirish, bu eng muhim vazifalardan biri ekanligini yana bir bor ta'kidlab o'tmoqchiman. Inson to'g'ri kasb tanlash orqali o'z oilasiga, jamiyatga juda katta naf keltirishi isbot talab qilmaydigan qonuniyatdir. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, hozirgi zamon globollashuv sharoitida axborot texnologiyalari vositasida kadrlar tayyorlash muhim o'rin tutadi.

Zero kundalik hayotimizda iqtisodiyotda, ishlab chiqarishda va hayot faoliyatimizning barcha sohalarida axborot texnologiyalaridan keng foydalanishimiz muqarrardir.

### **REFERENCES**

1. Zimnyaya I.A. Shaxsning kompetensiyasi – ta'lim natijasini yangi sifati // Ta'lim sifati muammolari. -2 kitob XII Butunrossiya materiallari- Uchrashuv. –M.; Ufa: Mutaxassislarni tayyorlashda sifat muammolari tadqiqot markazi, 2003.-B.4-13
2. Novikov A.M. Ta'lim metodikasi.M.: EGVES, 2006.-492 b.
3. Maxmutov M. I. Ta'limning kasbiy yo'nalishi printsipi / Zamonaviy pedagogik nazariya va amaliyotda ta'lim tamoillari // Universitetlararo ilmiy ishlar to'plami.- Chelyabinsk, 1985.— S .52-56
4. Kasb-hunar ta'limi ensiklopediyasi: 3 jildda/ ED. S. Ya. Ba—tisheva.-M., 1999-yil.
5. G'oziyev E. Mamedov K. Kasb psixologiyasi.-T.: O'zMU ,2003. 156-b.
6. [http s://Uzbekistan.ureport.in/story/364/](http://Uzbekistan.ureport.in/story/364/)
7. Nurumbetov, A. N., Mambetova, S. M., & Djumaniyazova, S. I. (2022). DUAL TA'LIMTA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING SAMARALI USULI! ZAMONAVIY TA'LIMDA KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHISHNI QO'LLASH PRINSIPLARI. *Academic research in educational sciences*, 3(6), 598-601.
8. Niyazimbetovich, N. A., Madraimovna, M. S., & Qurbanbaevna, D. G. (2022). Developing Competencies in Students of All Ages through Communication and Hands-On Experience. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 5, 447-450.
9. Niyazimbetovich, N. A., Madraimovna, M. S., & Iskandarovna, D. S. (2022). ZAMONAVIY TA'LIMDA KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHISHNI QO'LLASH PRINSIPLARI. *Science and innovation*, 1(1), 669-673.

10. Niyazmbetovich, A. N., Madraimovna, M. S., & Sharofat, J. (2022). The Role of ICT in Vocational Education and the Development of Information and Communication Technologies. Using the Opportunities of ICT in Education. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 15, 1-4.
11. Madraimovna, M. S. FORMATION OF INNOVATIVE PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS OF PROFESSIONAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS.
12. Мамбетова, С. М. (2019). ПРОБЛЕМА ВЫБОРА ПРОФЕССИИ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ ОБЩЕСТВЕННОГО РАЗВИТИЯ. In *EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY* (pp. 48-49).